SERVIS KITOBCHASI

СЕРВИСНАЯ КНИЖКА



SO‘Z BOSHI

Volkswagen avtomobillariga sifatli xizmat ko‘rsatish uchun Volkswagen rasmiy dilerlari va Volkswagen servis markazlarining keng tarmog‘i tashkil etilgan bo‘lib, bu Volkswagen brendi mijozlariga eng yuqori darajadagi xizmat ko‘rsatishni ta’minlash imkonini beradi.

Ushbu servis kitobchasida, Siz avtomobilingiz bilan birga olgan hujjatda, avtomobilingizni foydalanishga yaroqli holatda saqlash uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlar hamda avtomobildan foydalanish jarayonida, Volkswagen rasmiy dilerlari va Volkswagen servis markazlariga kafolat yoki texnik xizmat ko‘rsatish bo‘yicha murojaat qilganingizda Sizning huquq va majburiyatlaringizni tushuntiruvchi ma’lumotlar keltirilgan.

Barcha Volkswagen rasmiy dilerlari va Volkswagen servis markazlari ishlab chiqaruvchi tomonidan belgilangan talablar asosida faoliyat yuritadi, bu esa avtomobillarga sifatli xizmat ko‘rsatilishini ta’minlaydi hamda ularning ishonchliligi va xavfsiz foydalanishining kafolati hisoblanadi.

Siz uchun servis kitobchasini rasmiylashtirish orqali biz avtomobil sizga topshirilgan sanani va shu orqali avtomobilingiz uchun kafolat muddatining boshlanishini tasdiqlaymiz.

SERVIS KITOBCHASI O‘Z ICHIGA OLADI:

- avtomobilning ekspluatatsiya shartlari va xususiyatlari, ular sizga avtomobilingizdagi nosozliklar bilan bog‘liq noxush holatlarning oldini olishga yordam beradi;
- ishlab chiqaruvchi tomonidan avtomobilga taqdim etiladigan kafolatning batafsil shartlari va xususiyatlari;
- avtomobilingizga qachon va qanday hajmda texnik xizmat ko‘rsatish zarurligi haqidagi ma’lumotlar;
- Volkswagen dileri yoki Volkswagen servis markazi tomonidan qo‘yiladigan, avtomobilingizga texnik xizmat ko‘rsatilganligini tasdiqlovchi hamda avtomobilingizga texnik xizmat ko‘rsatish bo‘yicha barcha zarur ishlar bajarilganini hujjatli ravishda tasdiqlovchi qaydlar.

Servis kitobchasi doimo qo‘l ostingizda bo‘lishi uchun uni avtomobilingizda bort hujjatlari papkasida saqlang. Iltimos, avtomobilingizni sotganingizda servis kitobchasini yangi egasiga topshiring. To‘liq to‘ldirilgan servis kitobchasi avtomobilning ikkilamchi bozordagi qiymatini oshiradi.

UZB

ELEKTRON SERVIS KITOBCHASI

Qog‘oz ko‘rinishidagi servis kitobchasiga qo‘shimcha ravishda barcha Volkswagen avtomobillari “elektron servis kitobchasi”ga ham ega. Elektron versiyaning mavjudligi avtomobilga texnik xizmat ko‘rsatish bo‘yicha barcha ma’lumotlarni ishlab chiqaruvchining elektron ma’lumotlar bazasida saqlash imkonini beradi, bu esa ma’lumotlarning yo‘qolishi yoki buzilishi ehtimolini to‘liq istisno qiladi.

VOLKSWAGEN MIJOZLARI UCHUN AFZALLIKLAR

- hujjatlar yo‘qolganda yoki ma’lumotlar soxtalashtirilganda axborotning yuqori darajada himoyalanishi;
- istalgan Volkswagen dileri yoki istalgan Volkswagen servis markazida xizmat ko‘rsatish tarixining shaffofligi;
- avtomobilning to‘liq tarixi saqlanishi uni qayta sotishda qiymatini oshiradi.

FOYDALANILADIGAN ATAMALAR

Diler Volkswagen — Volkswagen bilan yozma shartnoma tuzgan tashkilot bo‘lib, ushbu shartnomaga muvofiq Volkswagen dileriga Volkswagen markasidagi avtomobillarni, original ehtiyot qismlar va aksessuarlarni sotish huquqi beriladi hamda diler zimmasiga ularni realizatsiya qilish, ta’mirlash, shuningdek Volkswagen avtomobillariga reglament asosida va kafolat bo‘yicha texnik xizmat ko‘rsatish majburiyati yuklatiladi;

Volkswagen servis markazi — Volkswagen bilan yozma shartnoma tuzgan tashkilot bo‘lib, ushbu shartnomaga muvofiq servis markaziga Volkswagen avtomobillarini ta’mirlash, reglament asosida va kafolat bo‘yicha texnik xizmat ko‘rsatish huquqi beriladi hamda uning zimmasiga ushbu ishlarni amalga oshirish, shuningdek Volkswagen original ehtiyot qismlari va aksessuarlarini sotish majburiyati yuklatiladi;

Kafolat muddati — ishlab chiqaruvchi tomonidan belgilangan vaqt davri bo‘lib, ushbu davr mobaynida avtomobilda ishlab chiqarish nuqsoni aniqlangan taqdirda, Volkswagen dileri yoki Volkswagen servis markazi amaldagi qonunchilikka muvofiq hamda mazkur servis kitobchasida ko‘rsatilgan shartlar asosida ishlab chiqaruvchining xaridorlar oldidagi kafolat majburiyatlarini bajarishi shart.

Diqqat!
Volkswagen avtomobillariga ishlab chiqaruvchi kafolati shartlari yoki texnik xizmat ko‘rsatish bo‘yicha turli axborot manbalarida qarama-qarshiliklar yuzaga kelgan taqdirda, mazkur servis kitobchasida, oldi-sotdi shartnomasida, shuningdek Volkswagen rasmiy veb-saytida (www.volkswagen.uz) keltirilgan ma’lumotlarga amal qilish lozim.

VOLKSWAGEN AVTOMOBILLARIDAN FOYDALANISH SHARTLARI, QOIDALARI VA XUSUSIYATLARI

UMUMIY KO‘RSATMALAR

Volkswagen avtomobillari “yengil yo‘lovchi avtomobillari” toifasiga kiradi va yo‘lovchilarni yoki kichik hajmdagi yuklarni sement-beton, asfalt-beton, shuningdek tosh (bruschatka) va mozaik qoplamali, sifati amaldagi standartlarga mos keladigan yo‘llarda tashish uchun mo‘ljallangan.

Volkswagen avtomobillari yuqori o‘tuvchanlik xususiyatiga ega emas (hatto to‘liq yuritma mavjud bo‘lsa ham). Umumiy foydalanishdagi yo‘ldan ataylab chiqish, shuningdek to‘siqlar yoki sayoz suvni kesib o‘tish oqibatlari uchun javobgarlik to‘liq haydovchi zimmasiga yuklanadi.

Volkswagen avtomobillari atrof-muhit harorati –30 dan +50 °C gacha bo‘lgan sharoitlarda foydalanish uchun mo‘ljallangan.

Boshqa harorat sharoitlarida avtomobildan ehtiyotkorlik bilan foydalanish lozim: dvigatel va transmissiya to‘liq qizib olmaguncha past uzatmada, dvigatel aylanish tezligini daqiqasiga 2000 dan oshirmagan holda harakatlanish tavsiya etiladi.

VOLKSWAGEN AVTOMOBILLARIDAN FOYDALANISH JARAYONIDA QUYIDAGILAR TAQIQLANADI:

• ekspluatatsion suyuqliklar darajasi yetarli bo‘lmaganda (MIN belgisidan past) avtomobildan foydalanish;

• yuqori dvigatel aylanishlarida pastroq uzatmani yoqish, bu esa aylanishlar maksimal ruxsat etilgan qiymatdan oshib ketishiga va dvigatel shikastlanishiga olib kelishi mumkin;

• ishlab chiqaruvchi tomonidan belgilangan oktan soni va ekologik sinfidan* past bo‘lgan yoqilg‘i bilan avtomobilni to‘ldirish. Ishlab chiqaruvchi tomonidan belgilangan oktan soni yonilg‘i bak qopqog‘ining ichki tomonidagi yorliqda yirik raqamlar bilan ko‘rsatilgan;

• avtomobilning kapot osti bo‘shlig‘ini va dvigatelini har qanday materiallar bilan yopish;

• kapot osti bo‘shlig‘iga begona buyumlarni joylashtirish;

• tashqi yoritish asboblarini jilolash (polirovka qilish);

*** “Yevro-6” va undan yuqori ekologik standartlarga javob beradigan dvigatellar (shu jumladan dizel) faqat K5 ekologik sinfiga mos sifatli yoqilg‘i bilan ishlatilishi kerak. K5 ekologik sinfiga mos kelmaydigan yoqilg‘idan (shu jumladan dizel yoqilg‘isi) foydalanish dvigatel nosozliklariga olib kelishi mumkin va bunday holatlar ishlab chiqaruvchi kafolati bilan qoplanmaydi.**

UZB

• yetaklovchi g‘ildiraklarning ataylab sirpanishiga yo‘l qo‘yish;

• avtomobilingiz akkumulyator batareyasi (AKB) orqali boshqa avtomobil dvigatelini ishga tushirish;

• avtomobilni tortib ishga tushirish (buksirovka orqali);

• suv bosgan yo‘l uchastkalaridan suv darajasi avtomobil porogidan yuqori yoki foydalanish qo‘llanmasida ko‘rsatilgan maksimal chuqurligidan oshgan holatda o‘tish;

• avtomobildan musobaqalar / poygalarda foydalanish;

• avtomobilning tugunlari, agregatlari va tizimlari konstruksiyasini o‘zgartirish;

• foydalanish qo‘llanmasi yoki yo‘l harakati qoidalarida ruxsat etilgan massadan ortiq bo‘lgan avtomobil yoki tirkamani tortish;

• avtomobilingizga zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan boshqa har qanday harakatlarni amalga oshirish

DIQQAT!
Dastlabki 1 500 km yurish davomida maxsus ekspluatatsiya shartlariga (dvigatelni obkatka qilish rejimiga) rioya qilish zarur.

OBKATKA DAVRIDA QUYIDAGILARGA YO‘L QO‘YILMAYDI:

• ulangan uzatma uchun maksimal tezlikning 3/4 qismidan yuqori tezlikni rivojlantirish, ya’ni dvigatel aylanishlarini maksimal ruxsat etilgan qiymatning 3/4 qismidan oshirish;

• akselerator pedalini to‘liq bosish;

• tirkama bilan harakatlanish.

VOLKSWAGEN AVTOMOBILIDA SUV ORQALI HARAKATLANISH

Dvigatelning havo qabul qilish tizimiga kirgan suv dvigatel detallariga jiddiy zarar yetkazishi mumkin. Suv to‘sig‘ini kesib o‘tishda avtomobilning yurish qismi, elektr jihozlari va uzatmalar qutisi kabi qismlar ham jiddiy shikastlanishi mumkin. Avtomobilni, masalan, suv bosgan yo‘llardan o‘tkazishda zararlarning oldini olish uchun quyidagilarni inobatga olish zarur:

• suv darajasi avtomobil porogining yuqori qismidan oshmasligi kerak (agar foydalanish qo‘llanmasida maksimal “kechib o‘tiladigan suv chuqurligi” ko‘rsatilmagan bo‘lsa);

• harakat tezligi piyoda tezligidan (5–6 km/soat) oshmasligi kerak. Yuqori tezlikda avtomobil oldida to‘lqin hosil bo‘lib, suv dvigatelning havo kirish tizimiga yoki boshqa qismlarga kirib ketishi mumkin;

• suv ichida hech qanday holatda to‘xtamaslik, orqaga yurmaslik va dvigatelni o‘chirmaslik kerak.

Shuningdek, sho‘r suvga kirish tavsiya etilmaydi, chunki tuz korroziyaga sabab bo‘lishi mumkin. Sho‘r suv bilan aloqada bo‘lgan avtomobilni toza (chuchuk) suv bilan yaxshilab yuvish zarur.

UZB

HAVFSIZLIK YOSTIQLARI TIZIMI

Xavfsizlik yostiqchalari tizimi faqat yoqilgan o‘t oldirish holatida ishlaydi. Xavfsizlik yostiqchalari tizimining ishlash algoritmi haydovchi va barcha yo‘lovchilar xavfsizlik kamarlarini taqqan bo‘lishini nazarda tutadi hamda faqat xavfsizlik kamarlarining oldindan tortuvchi qurilmalarini xavfsizlik yostiqchalari faollashmasdan ishga tushirishni yoki xavfsizlik kamarlarining oldindan tortuvchi qurilmalari bilan birga ayrim xavfsizlik yostiqchalarini faollashtirishni ko‘zda tutadi. Passiv xavfsizlik tizimi yo‘l-transport hodisasi (YTH) vaqtida jarohatlar og‘irligini kamaytirishni yoki ularning umuman bo‘lmasligini kafolatlamaydi va faqat xavfsizlik kamarlari taqilgan holatda to‘g‘ri ishlaydi.

Ba’zi avariya holatlarida bir vaqtning o‘zida bir nechta xavfsizlik yostiqchalari faollashishi mumkin.

XAVFSIZLIK YOSTIQCHALARI QUYIDAGI HOLATLARDA FAOLLASHMAYDI:

- yengil oldi va yon to‘qnashuvlarda;
- orqa tomondan zarbalar bo‘lganda;
- avtomobil ag‘darilganda yoki to‘ntarilganda.

Yuqorida keltirilgan holatlar ro‘yxati to‘liq emas. Har bir alohida vaziyat uchun qo‘llaniladigan xavfsizlik yostiqchalarining faollashuviga doir umumiy shartlarni belgilashning imkoni yo‘q. Bunda, jumladan, avtomobil duch kelgan to‘siqning xususiyati (qattiq yoki yumshoq), to‘qnashuv burchagi, to‘qnashuv paytidagi avtomobil tezligi va boshqa omillar muhim rol o‘ynaydi.

Xavfsizlik yostiqchalarining faollashuvi uchun hal qiluvchi omil avtomobil harakat tezligining tormozlanish (sekinlashish) jarayonidir. Boshqaruv bloki to‘qnashuv jarayonini tahlil qiladi va avtomobil passiv xavfsizlik tizimining tegishli elementini faollashtiradi. Agar zarba paytida yuzaga kelgan va tizim tomonidan o‘lchangan sekinlashuv boshqaruv blokida saqlangan nazorat qiymatlaridan chiqib ketmasa, xavfsizlik yostiqchalari ochilmaydi, hatto avariya natijasida avtomobil jiddiy shikastlangan bo‘lsa ham.

Diqqat!

Avtomobil sotilganda, xaridorga barcha bort hujjatlarini topshiring. Xususan, old yo‘lovchi xavfsizlik yostiqchasi o‘chirilishi mumkinligi haqidagi ma’lumot ham to‘plamda mavjud bo‘lishiga ishonch hosil qiling!

UZB

SIFAT UCHUN JAVOBGARLIK

KAFOLAT MAJBURIYATLARI

Ishlab chiqaruvchi, shuningdek sotuvchi (sizning Volkswagen dileringiz) Sizning yangi Volkswagen avtomobilingiz sifati uchun amaldagi qonunchilikka va oldi-sotdi shartnomasi shartlariga muvofiq javobgar hisoblanadi.

Avtomobil bilan birga yetkazib beriladigan, biroq uning to‘liq komplektatsiyasiga kirmaydigan elementlar, detallar va butlovchi qismlar uchun kafolat muddati (ushbu servis kitobchasida keyin keltirilgan ro‘yxatga muvofiq kafolat majburiyatlari tatbiq etilmaydigan qismlar bundan mustasno) avtomobilning kafolat muddati tugashi bilan bir vaqtda yakunlanadi.

Volkswagen avtomobillari uchun ishlab chiqaruvchi tomonidan umumiy kafolat muddati 3 (uch) yil yoki 100 000 km etib belgilangan. Qaysi biri avvalroq yetib kelsa, shu muddat amal qiladi.

Ushbu shart faqat O‘zbekiston Respublikasi hududida Volkswagen rasmiy dilerlar tarmog‘i orqali sotilgan va ushbu bozor uchun mo‘ljallangan avtomobillarga nisbatan amal qiladi.

Kafolat muddatining boshlanishi (birinchi kuni) Volkswagen dileri tomonidan avtomobil birinchi xaridorga topshirilgan sana hisoblanadi.

Avtomobilga kafolatli ta’mirlash (ishlab chiqarish nuqsonlarini bartaraf etish) nosoz detal/tugun/agregatni almashtirish yoki ta’mirlash yo‘li bilan amalga oshiriladi, bunda ta’mirlash usulini tanlash huquqi Volkswagen dileri yoki Volkswagen servis markazida qoladi. Almashtirilgan detallar Volkswagen dileri yoki servis markazi tomonidan ifodalangan ishlab chiqaruvchining mulkiga o‘tadi.

Kafolatli ta’mirlash doirasida almashtirilgan avtomobil detallar va butlovchi qismlar uchun kafolat muddati avtomobilning umumiy kafolat muddati tugashi bilan bir vaqtda yakunlanadi.

Diqqat!

Yoqilg‘i yoki dvigatel moyi sarfi, shuningdek foydalanish qo‘llanmasida yoki mazkur servis kitobchasida ko‘rsatilgan boshqa avtomobil xususiyatlari ma’lumot uchun berilgan bo‘lib, taxminiy xarakterga ega. Ular haqiqiy ko‘rsatkichlarga to‘liq mos kelishini anglatmaydi va bunday kafolatni bermaydi, chunki ushbu qiymatlar kundalik foydalanishda erishib bo‘lmaydigan ideal sharoitlarda olingan.

Ekspluatatsion suyuqliklar sarfi, jumladan motor yoqilg‘isi sarfi, shuningdek detallar yeyilishining intensivligi harakat rejimi, haydash uslubi va boshqa omillarga bog‘liq bo‘lib, avtomobil nosozligi hisoblanmaydi.

UZB

KAFOLAT MAJBURIYATLARI QUYIDAGI ELEMENTLAR, DETALLAR VA BUTLOVCHI QISMLARGA TATBIQ ETILMAYDI:

• barcha turdagi filtrlarga;

• o‘t oldirish shamlari va yuqori kuchlanish simlariga;

• mexanik uzatmalar qutisi uchun mufta (stsepleniye) mexanizmiga;

• tormoz kolodkalari, disklar / barabanlarga;

• oyna-tozalagich cho‘tkalariga;

• eruvchan saqlagichlarga;

• faralar, chiroqlar va plafonlar lampalariga;

• kuzov va salonning dekorativ qoplamali elementlariga (metalllashtirilgan plastmassa, jilolangan alyuminiy va boshqalar);

• kuzov va salonning xromlangan elementlariga;

• ekspluatatsion suyuqliklar va moylarga (moy, antifriz, tormoz suyuqligi, oynayuvgich suyuqligi, konditsioner tizimi sovutgichi);

• tashqi oynalash elementlariga;

• tabiiy va sun’iy charm qoplamalariga ularning tabiiy eskirishi, ishqalanishi, cho‘zilishi va hokazo holatlarda;

• shinalarga.

ISHLAB CHIQARUVCHI KAFOLATI DOIRASIDA FAQAT ISHLAB CHIQARISH XARAKTERIDAGI SIFAT NUQSONLARI BARTARAF ETILADI, ULARGA QUYIDAGILAR KIRMAYDI:

• zavod tomonidan o‘rnatilmagan va/yoki Volkswagen markasining original uskunalari yoki aksessuarlari hisoblanmaydigan aksessuarlar va jihozlarning (tashqi, ichki va olinadigan qurilmalar) sifat nuqsonlari, shuningdek ushbu qurilmalar ta’sirida yuzaga kelgan nosozliklar;

• ekspluatatsiya jarayonida yuzaga keladigan va avtomobilning konstruktiv xususiyati hisoblangan, avtomobil yoki uning elementlarining sifati, xususiyatlari va ish qobiliyatiga ta’sir qilmaydigan kichik shovqinlar (chertish, g‘ichirlash, vibratsiya);

• prokladkalar va salniklar orqali suyuqliklarning oz miqdorda sizib chiqishi hamda salnik va muhrlar hududida moy dog‘larining (terlash) paydo bo‘lishi, bu moy sarfiga ta’sir qilmaydi, shuningdek faralar va chiroqlarda kondensat hosil bo‘lishi;

• eshiklar, kapot, yukxona qopqog‘i joylashuvining buzilishi, g‘ildiraklar o‘rnatilish burchaklari, oynatozalagich richaglari holati va sozlash ishlarini talab qiladigan boshqa sifat kamchiliklari;

• qoplama sifati va hajmi, navigatsiya xaritalarining batafsilligi hamda dolzarbligi, shuningdek avtomobil multimediya uskunasining uchinchi tomon elektron qurilmalari bilan mosligi.

UZB

KAFOLAT MAJBURIYATLARI QUYIDAGI SABABLAR NATIJASIDA VA ULAR OQIBATIDA YUZAGA KELGAN SIFAT NUQSONLARIGA TATBIQ ETILMAYDI:

• ushbu servis kitobchasi, foydalanish qo‘llanmasi va avtomobil bilan birga beriladigan boshqa hujjatlarda keltirilgan foydalanish va parvarish qoidalarining buzilishi, ko‘rsatma va talablarga rioya qilinmasligi;

• avtomobildan noto‘g‘ri foydalanish yoki uni noto‘g‘ri ekspluatatsiya qilish (masalan, sport musobaqalarida foydalanish yoki ruxsat etilgan yuklamalardan oshirish);

• detallar, uzellar va agregatlarning tabiiy eskirishi, jumladan haydash uslubi yoki ekspluatatsiya sharoitlari (masalan, yo‘l qoplamasi sifati va boshqalar) bilan bog‘liq tezlashgan eskirish;.

• rezina muhrlar, moldinglar, osma (podveska) detallar, chiqindi gazlar tizimi elementlarining atrof-muhit ta’sirida tabiiy qarishi;

• yo‘l-transport hodisasi (YTH) yoki boshqa tashqi ta’sirlar (kimyoviy moddalar, kislota, yo‘l qoplamasi qismlari, toshlar, qum, tuz, olov, inson faoliyati natijasidagi omillar, beparvolik yoki noqonuniy harakatlar, vandalizm);

• tabiiy va ekologik hodisalar (masalan, daraxt smolasi, do‘l, bo‘ron, chaqmoq, kuchli yomg‘irlar, shuningdek tabiiy ofatlar va boshqalar);

• avtomobil foydalanish qo‘llanmasida ko‘rsatilgan talablarga mos kelmaydigan yoqilg‘i-moylash materiallari va ekspluatatsion suyuqliklardan foydalanish, shuningdek ekspluatatsion suyuqliklar va materiallar (jumladan, yoqilg‘i) yetarli miqdorda bo‘lmasligi;.

• malakasiz yoki o‘z vaqtida bajarilmagan parvarish va texnik xizmat ko‘rsatish, jumladan Volkswagen dileri yoki rasmiy servis markazi bo‘lmagan joylarda bajarilgan nosifat ta’mirlash;

• ishlab chiqaruvchi / importyor / sotuvchi tomonidan tasdiqlanmagan holda avtomobil konstruksiyasiga va/yoki dasturiy ta’minotiga o‘zgartirishlar kiritilishi (tyuning), jumladan navigatsiya xaritalarini ruxsatsiz yangilash;.

• avtomobilni Volkswagen markasining original uskunalari, aksessuarlari va detallariga kirmaydigan hamda ishlab chiqaruvchi tomonidan tasdiqlanmagan qo‘shimcha jihozlar, aksessuarlar, detallar yoki osma uskunalar bilan jihozlash;.

• qo‘shimcha uskunalar, aksessuarlar va detallarni o‘rnatish, shuningdek avtomobil konstruksiyasi va/yoki dasturiy ta’minotiga ishlab chiqaruvchi yoki importyor tomonidan ruxsat etilmagan va ularning talablariga mos kelmaydigan tarzda o‘zgartirishlar kiritish (Volkswagenning rasmiy dileri yoki servis markazidan tashqarida);.

• nosozliklar haqida Volkswagen dileri yoki servis markaziga xabar bermaslik yoki o‘z vaqtida xabar bermaslik, shuningdek nosozliklarni bartaraf etish uchun avtomobilni Volkswagen dileri yoki servis markaziga taqdim etmaslik yoki kechiktirib taqdim etish, bu holatlarda diler yoki servis markazi talab va tavsiyalariga zid ravishda harakat qilish.

BO‘YOQ-QOPLAMA VA KUZOV UCHUN KAFOLAT QUYIDAGI HOLATLARDA TAQDIM ETILMAYDI:

• avtomobilga noto‘g‘ri yoki yetarli darajada parvarish qilinmagani, jumladan noto‘g‘ri saqlash natijasida shikastlanish yuzaga kelgan bo‘lsa;
• bo‘yoq-qoplama va kuzovdagi sifat nuqsonlari tashqi ta’sir (masalan, yo‘l-transport hodisasi) yoki ehtiyotsiz haydash (chiplar, tirnalishlar, botiqlar va h.k.) bilan bog‘liq bo‘lsa;

• bo‘yoq-qoplama (LKP) shikastlari Volkswagen dileri yoki servis markazi tavsiyalariga muvofiq o‘z vaqtida bartaraf etilmaganligi natijasida yuzaga kelgan bo‘lsa;

• kuzovning chuqur korroziyasi (teshib o‘tuvchi zang) kuzovni ta’mirlashda ishlab chiqaruvchi ko‘rsatmalariga rioya qilinmaganligi bilan bog‘liq bo‘lsa (xususan, ta’mirlash Volkswagen dileri yoki servis markazi bo‘lmagan korxonada bajarilgan bo‘lsa);

• sifat nuqsonlari texnik xizmat ko‘rsatish talablariga rioya qilinmaganligi oqibatida yuzaga kelgan bo‘lsa.

Diqqat!

Avtomobil egasining tavsiya etilgan kafolatli ta’mirlashni bajarishdan bosh tortishi yoki uni rad etishi ishlab chiqaruvchi / importyor / sotuvchi va boshqalarni ushbu rad etish natijasida yuzaga keladigan oqibatlar uchun javobgarlikdan ozod etish uchun asos bo‘ladi. Agar avtomobil O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida xarid qilingan bo‘lsa yoki avtomobil O‘zbekiston Respublikasi hududiga importyoridan tashqari boshqa shaxslar tomonidan olib kirilgan bo‘lsa, shuni inobatga olish kerakki, bunday avtomobilga nisbatan ishlab chiqaruvchi (sotuvchi)ning kafolat majburiyatlari boshqacha bo‘lishi mumkin (xususan, kafolat muddati, kafolat taqdim etish shartlari va boshqalar).



UZB

VOLKSWAGEN AVTOMOBILLARIGA TEXNIK XIZMAT KO‘RSATISH HAQIDA MA’LUMOT

Kirish ma’lumotlari

Avtomobilni a’lo texnik holatda saqlash va kafolat majburiyatlarini to‘liq hajmda saqlab qolish maqsadida har bir Volkswagen avtomobili muntazam ravishda reglament bo‘yicha texnik xizmat ko‘rsatishdan o‘tishi lozim.
Ishlab chiqaruvchi talablariga muvofiq muntazam texnik xizmat ko‘rsatish avtomobilning asosiy uzellari uzoq muddat va nosozliksiz ishlashining kafolatidir.

Volkswagen avtomobillariga texnik xizmat ko‘rsatish butun dunyo bo‘ylab rivojlangan dilerlik va servis tarmog‘i orqali amalga oshiriladi, bu esa Volkswagen mijozlariga eng yuqori darajadagi xizmatni ta’minlash imkonini beradi.

Barcha Volkswagen dilerlari va servis markazlari ishlab chiqaruvchi talablariga muvofiq zarur diagnostika uskunalari va maxsus asboblarning to‘liq to‘plami bilan jihozlangan. Ular SAIC-Volkswagen ishlab chiqaruvchisining texnologiyasi va me’yorlari asosida faoliyat yuritadi.

Volkswagen dilerlari va servis markazlari xodimlari barcha zarur bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lib, ularning malakasi Volkswagen sertifikatlari bilan tasdiqlangan.

Volkswagen dilerlari yoki servis markazlari omborlarida har doim original ehtiyot qismlar va aksessuarlarning keng assortimenti mavjud.

⚠ ESLATMA:
Ushbu texnik xizmat ko‘rsatish ishlari faqat malakali mutaxassislar tomonidan, ishlab chiqaruvchi (Volkswagen) talab va ko‘rsatmalariga qat’iy rioya qilgan holda bajarilishi lozim.

Texnik xizmat ko‘rsatish (TXK) davriyligi

O‘zbekiston Respublikasi hududida foydalanilayotgan barcha Volkswagen avtomobillari uchun rejali texnik xizmat ko‘rsatish bo‘yicha qat’iy servis oralig‘i belgilangan — 10 000 km yoki 1 yil (qaysi biri oldin sodir bo‘lishiga qarab).

Asboblar panelidagi rejali texnik xizmat ko‘rsatish indikatori navbatdagi texnik xizmat zarurligi haqida oldindan eslatib turadi.

Diqqat!
Ushbu servis kitobchasida ko‘rsatilgan rejali texnik xizmat ko‘rsatish oraliqlari odatiy foydalanish sharoitlariga mos keladi. Og‘ir ekspluatatsiya sharoitlarida ayrim ishlarni keyingi rejali texnik xizmat muddati kelishidan oldin bajarish zarur. Bu, avvalo, dvigatel moyini, havo filtri filtrlovchi elementini almashtirish, shuningdek gaz taqsimlash mexanizmi (GTM) privodini tekshirish va almashtirishga taalluqlidir.

UZB

OG‘IR EKSPLUATATSIYA SHAROITLARIGA QUYIDAGILAR KIRADI:

• Oltingugurt miqdori yuqori bo‘lgan yoqilg‘idan foydalanish;

• Qisqa masofalarga tez-tez qatnovlar;

• Yo‘l tarmog‘i yuklangan shaharlarga xos bo‘lgan tez-tez to‘xtashli harakat rejimi;

• Dvigatelning uzoq vaqt bo‘sh holatda ishlashi;

• Chang miqdori yuqori bo‘lgan hududlarda foydalanish;

• Tirkama bilan harakatlanish;

• -30 °C dan past haroratda foydalanish.

Volkswagen dileri yoki servis markazi mutaxassislari sizga hududingiz sharoitlarida avtomobilga xizmat ko‘rsatish xususiyatlari bo‘yicha zarur ma’lumotlarni taqdim etadi.

Texnik xizmat ko‘rsatishning barcha turlari, jumladan sarf materiallarini almashtirish va ishchi suyuqliklarni to‘ldirish, ishlab chiqaruvchi tomonidan alohida holatlar ko‘zda tutilmagan bo‘lsa, hatto kafolat muddati davomida ham mijoz uchun pullik asosda amalga oshiriladi.

Texnik xizmat ko‘rsatish narxi bajarilishi kerak bo‘lgan ishlar hajmiga, avtomobil modeli va komplektatsiyasiga, shuningdek uning holatiga bog‘liq. Rejali texnik xizmat davomida foydalanish sharoitlariga qarab qo‘shimcha ishlar zarur bo‘lishi mumkin — bu haqda sizga Volkswagen dileri xabar beradi.

⚠ ESLATMA:
Og‘ir ekspluatatsiya sharoitlarida avtomobildan foydalanilganda texnik xizmat ko‘rsatish intervali qisqartirilishi zarur.

UZB

VOLKSWAGEN AVTOMOBILLARI UCHUN REJALI TEXNIK XIZMAT KO‘RSATISH REGLAMENTI

Diqqat!
Quyida keltirilgan ishlar ro‘yxati to‘liq emas. Sizning Volkswagen avtomobilingiz uchun zarur bo‘lgan barcha ishlar haqida to‘liq ma’lumotni Volkswagen dileri yoki Volkswagen servis markazidan olishingiz mumkin.

Birinchi texnik xizmat (moy almashtirish bilan) 5000 km yurgandan so‘ng amalga oshiriladi.

Inspeksiya servisi moy almashtirish bilan har yili yoki har 10 000 km (qaysi biri oldin sodir bo‘lishiga qarab) amalga oshiriladi va quyidagi majburiy ishlarni o‘z ichiga oladi:

• dvigatel moyi va moy filtri — almashtirish;

• salon uchun changga qarshi va antiallergen filtr — almashtirish;

• akkumulyator — tekshirish;

• old oynani shikastlanishlar mavjudligiga tekshirish;

• old va orqa tashqi yoritish — tekshirish;

• signal (klakson) — tekshirish;

• oynatozalagich cho‘tkalari — shikastlanish yo‘qligini tekshirish;

• shinalarni ta’mirlash to‘plami (mavjud bo‘lsa) — tekshirish;

• tormoz suyuqligi darajasi — tekshirish;

• tormoz tizimi — tekshirish;

• tormoz kolodkalari qalinligi — tekshirish;

• ABS aylanish tezligi datchiklari simlari — shikastlanish va to‘g‘ri o‘rnatilganligini tekshirish;

• shinalar — tekshirish;

• salon yoritilishi — tekshirish;

• lak-bo‘yoq qoplamasi — korroziya mavjudligiga tekshirish;

• oynatozalagich va oynayuvish tizimi — tekshirish;

• suv chiqarish qutisi — ifloslanishga tekshirish, zarurat bo‘lsa tozalash;

• kapot qulfi — moylash;

• faralar — sozlanishini tekshirish;

• poliklinoviy tasma — holatini tekshirish;

• sovitish tizimi — tekshirish;

• dvigatel bo‘limi pastki qismi — tekshirish;

• old va orqa osma — tekshirish;

• chiqindi gazlar tizimi — tekshirish;

• pastki himoya — tekshirish;

• keyingi TXK indikatori — nolga tushirish;

• sinov haydovi;

• ushbu servis kitobchasiga va elektron servis kitobchasiga belgi qo‘yish.

UZB

FOYDALANISH MUDDATI YOKI YURGAN MASOFAGA QARAB QO‘SHIMCHA ISHLAR

Har 20 000 km yoki 2 yil foydalanilganda:
• havo filtri elementi — almashtirish;
• o‘t oldirish shamchalari — almashtirish;
• AT-6 (09G) uzatmalar qutisi — moy darajasini tekshirish.

Har 60 000 km:
• AT-6 (09G) uzatmalar qutisidagi moy va filtr — almashtirish.

Har 90 000 km:
• GTM (gaz taqsimlash mexanizmi) tishli tasmasi va taranglovchi rolik — tekshirish;
• poliklinoviy tasma — holatini tekshirish, zarurat bo‘lsa almashtirish.

Har 120 000 km:
• GTM tishli tasmasi va taranglovchi rolik — almashtirish;
• suv nasosi privodining tishli tasmasi (GTM tasma privodli benzin dvigatelli avtomobillar uchun) — almashtirish;
• AT-6 (09G) uzatmalar qutisidagi moy va filtr — almashtirish.

Har 2 yil foydalanilganda:
• to‘liq yuritma muftasidagi moy — almashtirish;
• old o‘q differensial blokirovkasidagi moy — almashtirish.

Dastlabki 3 yildan so‘ng, keyinchalik har 2 yilda:
• tormoz suyuqligi — almashtirish.

240 000 km yurganda yoki 15 yil foydalanilganda:
• yoqilg‘i quvurlari (neylon, rezina) — almashtirish.

⚠ ESLATMA:
Tormoz suyuqligini o'z vaqtida almashtirish shart! Aks holda, tormozlash vaqtida suyuqlik qaynab, tormoz tizimida havo tiqinlari hosil bo'lishi va bu tizimning ishlamay qolishiga hamda avariyaga olib kelishi mumkin.

Diqqat!
O‘z vaqtida almashtirilmagan tormoz suyuqligi intensiv tormozlash vaqtida qaynab, tormoz tizimida bug‘ tiqinlari hosil qilishi mumkin. Natijada tormozlar ishlamay qolishi va bu avariyaga olib kelishi mumkin!

Diqqat!
Ishlab chiqaruvchi faqat SAIC-Volkswagen talablari (ruxsati)ga ega bo‘lgan dvigatel moyidan foydalanishni tavsiya qiladi. Ushbu ruxsat haqida ma’lumotni moy yorlig‘idan yoki ishlab chiqaruvchidan aniqlash mumkin. O‘zbekiston bozori uchun benzin dvigatelli avtomobillarda VW 508 00 ruxsatiga ega dvigatel moyidan foydalanish belgilangan. Volkswagen dilerlarida sotib olish mumkin bo‘lgan original dvigatel moyidan foydalanishni tavsiya etamiz.

Har bir texnik xizmat ko‘rsatish vaqtida avtomobil kuzovi tashqi ko‘rikdan o‘tkazilib, lak-bo‘yoq qoplamasi va pastki qismning korroziyaga qarshi qoplamasida shikastlanishlar mavjudligi tekshirilishi shart. Barcha aniqlangan shikastlanishlar bartaraf etilishi lozim.

UZB

ПРЕДИСЛОВИЕ

Для качественного обслуживания автомобилей создана развитая сеть официальных дилеров и сервисных центров Volkswagen, что позволяет обеспечивать клиентам марки Volkswagen высочайший уровень сервиса.

Все официальные дилеры и сервисные центры Volkswagen работают в соответствии с предписаниями изготовителя, что гарантирует качественное обслуживание автомобилей, являющееся залогом надежности и безопасного использования.

